



2019- YIL UCHUN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA ASOSIY VOSITALARNING HOLATI VA HARAKATI*

I. Asosiy vositalar bo‘yicha umumiy ma’lumotlar

O‘zbekiston Respublikasida 2019- yil oxiriga ko‘ra, asosiy vositalarning qayta baholashni hisobga olgan holda boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati 833 577,3 mlrd. so‘mni (yoki YaIM ga nisbatan 162,9 %), qoldiq qiymati bo‘yicha esa 591 296,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



Asosiy vositalar - korxonada tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma‘muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan moddiy aktivlar.



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha asosiy vositalar¹ (yil oxiriga, mlrd. so‘m)

	Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati			Qoldiq qiymati		
	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.
Asosiy vositalar - jami	309 746,0	705 020,0	833 577,3	210 660,4	505 501,6	591 296,0
<i>shu jumladan:</i>						
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	32 784,1	44 499,0	53 730,1	31 138,1	42 325,7	51 082,6

¹Ushbu va keyingi jadvallarda 2018-2019- yillar uchun asosiy fondlar qiymati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.12.2017- yildagi 1043-sonli “Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarining, turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq Davyergeodezkadastr qo‘mitasi tomonidan amalga oshirilgan uy-joy fondining qayta baholashlarini hisobga olgan holda keltirilgan. Uy-joy fondi “Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar” tarmog‘iga, shu bilan birga xizmatlar sohasiga kiritiladi.



	Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati			Qoldiq qiymati		
	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.
tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	28 606,9	44 520,8	54 719,3	19 732,4	30 671,6	37 768,2
ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	64 460,7	94 302,9	123 201,6	40 610,4	59 291,2	80 055,5
elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	19 372,3	26 308,5	37 100,3	12 106,5	15 993,5	23 292,5
suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	3 076,6	4 543,2	6 246,3	2 020,6	3 034,2	4 308,1
qurilish	8 763,5	12 553,1	17 277,9	5 425,6	7 678,1	11 401,9
ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	10 931,0	14 119,0	17 938,8	8 374,8	10 820,6	13 896,9
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 765,8	3 695,7	4 701,3	2 230,9	2 857,7	3 574,5
tashish va saqlash	51 579,8	70 013,8	83 375,4	31 038,1	39 038,0	46 199,6
axborot va aloqa	10 520,2	15 945,1	18 625,2	4 316,6	6 220,2	7 423,6
boshqa xizmatlar sohasi	76 885,1	374 518,9	416 661,1	53 666,4	287 570,8	312 292,6

2019- yil oxiriga boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha asosiy vositalarning 65,0 % i xizmatlar sohasi, 26,5 % i sanoat, 6,4 % i qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 2,1 % i esa qurilish tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri kelgan.



2018-2019- yillar oxiriga iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha asosiy vositalar tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

<i>Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati</i>		<i>Faoliyat turlari</i>	<i>Qoldiq qiymati</i>	
2018- y.	2019- y.		2018- y.	2019- y.
6,3	6,4	 Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	8,3	8,7
24,1	26,5	 Sanoat	21,6	24,6
1,8	2,1	 Qurilish	1,5	1,9
2,0	2,2	 Savdo	2,1	2,4
0,5	0,6	 Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	0,6	0,6
9,9	10,0	 Tashish va saqlash	7,7	7,8
2,3	2,2	 Axborot va aloqa	1,3	1,3
53,1	50,0	 Boshqa xizmat tarmoqlari	56,9	52,7

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati (eskirishni chegirib tashlagan holdagi boshlang‘ich qiymati) bo‘yicha tarkibi ularning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha tarkibidan bir oz farq qiladi. 2019- yil oxiriga asosiy vositalarning qoldiq



qiymati bo‘yicha hajmining 64,8 % i xizmatlar sohasi, 24,6 % i sanoat, 8,7 % i qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 1,9 % i esa qurilish tarmoqlari korxonalariga to‘g‘ri keldi.

2019- yilda jami iqtisodiyot bo‘yicha 122 317,2 mlrd. so‘m miqdorida yangi asosiy vositalar ishga tushirildi va asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti (chorva mollaridan tashqari) 13,5 % ni tashkil etdi. 2018- yilda esa ushbu ko‘rsatkich 121 953,6 mlrd. so‘mni hamda asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti 16,0 % ni tashkil etgan.



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha yangi asosiy vositalarning ishga tushurilishi


	Mlrd. so‘m		
	2017- y.	2018- y.	2019- y.
Asosiy vositalar - jami	56 058,6	121 953,6	122 317,2
shu jumladan:			
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	13 175,6	18 924,2	19 736,7
sanoat	16 375,0	29 384,6	39 558,1
qurilish	1 123,4	2 665,9	4 617,6
xizmatlar sohasi	25 384,6	70 978,9	58 404,8

Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti - yil davomida ishga tushirilgan yangi asosiy vositalar qiymatining yil oxiridagi asosiy vositalar qiymatiga nisbati.





O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti dinamikasi (% da)




So‘nggi uch yil mobaynida (2017-2019- yillar) iqtisodiyotda asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti 13,5 % dan 16,0 % oralig‘ida o‘zgarib turgan va o‘rtacha 15,0 % ni tashkil etgan.

2019- yilda jami yangi ishga tushirilgan asosiy vositalar qiymatining 16,1 % i - qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 32,3 % i - sanoat, 3,8 % i - qurilish va 47,8 % i - xizmatlar sohasidagi tarmoq korxonalari hissasiga to‘g‘ri kelgan.



Yangi ishga tushirilgan asosiy vositalarni iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da)






2019- yilda 19 205,7 mlrd. so‘mlik asosiy vositalar tugatilgan bo‘lib, asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsienti (chorva mollaridan tashqari) 1,5 % ni tashkil etgan.

Asosiy vositalarning chiqib ketish (tugatilish) koeffitsienti - tugatilgan asosiy vositalar qiymatining yil boshida mavjud bo‘lgan jami asosiy vositalar qiymatiga nisbati.



O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy vositalarning chiqib ketish (tugatilish) koeffitsienti dinamikasi (% da)



Asosiy vositalarning chiqib ketish (tugatilish) koeffitsienti qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (chorva mollaridan tashqari) - 5,3 % ni, sanoatda - 2,3 % ni (xususan, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 2,0 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 2,3 %, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash - 3,0 %, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish - 1,2 %), qurilishda - 4,3 % ni va xizmatlar sohasida - 1,0 % ni tashkil etgan.

Asosiy vositalarning eskirish darajasi asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) va qoldiq qiymati o‘rtasidagi farqning yil oxiridagi boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatiga nisbati orqali hisoblanadi.




2019- yil oxiriga asosiy vositalarning jamg‘arilgan eskirishi 242 281,3 mlrd. so‘mga yetgan va eskirish darajasi (chorva mollaridan tashqari) 30,4 % ni tashkil etgan.



O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy vositalarning eskirish darajasi dinamikasi (% da)


2017-2019- yillar davomida asosiy vositalarning eskirish darajasi 2017- yildagi 34,9 foizdan 2019- yilda 30,4 foizgacha kamaydi va o‘rtacha 31,6 % ni tashkil etdi.



Asosiy vositalarning eskirish darajasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (chorva mollaridan tashqari) - 14,5 %, sanoatda – 34,3 % (xususan, toq-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda - 31,0 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda - 35,0 %, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda - 37,2 %, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarini yig‘ish va utilizatsiya qilishda - 31,0 %), qurilishda - 34,0 % va xizmatlar sohasida - 29,2 % ga yetgan.



Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha asosiy vositalarning eskirish darajasi (2019- yil oxiriga, % da)











II. Yirik korxonalar bo‘yicha asosiy vositalar

2019- yil oxiriga iqtisodiyot bo‘yicha jami asosiy vositalar boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatining 278 362,1 mlrd. so‘mi yoki 33,4 foizi yirik tijorat korxonalari, 122 305,6 mlrd. so‘mi yoki 14,7 foizi kichik tijorat korxonalari va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan.



Yirik tijorat korxonalari asosiy vositalarining boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati (yil oxiriga, mlrd. so‘m)

	Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati		
	2017- y.	2018- y.	2019- y.
Asosiy vositalar - jami	161 637,1	227 961,5	278 362,1
 binolar	17 164,7	20 985,5	27 354,9
 inshootlar	33 644,5	40 534,7	52 130,9
 uzatish moslamalari	29 638,0	40 380,8	47 062,6
 mashina va uskunalar	57 758,1	89 585,9	106 979,8
 transport vositalari	17 575,3	29 878,2	37 131,8
 boshqa asosiy vositalar	5 856,5	6 601,4	7 702,1









Aktivlar turlari kesimida 2018- yil oxiriga boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha yirik tijorat korxonalar jami asosiy vositalarining 9,2 foizi binolar, 17,8 foizi inshootlar, 17,7 foizi uzatish moslamalari, 39,3 foizi mashina va uskunalar, 13,1 foizi transport vositalari va 2,9 foizi boshqa asosiy vositalar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

2019- yil oxiriga esa jami asosiy vositalarning 9,8 foizi binolar, 18,7 foizi inshootlar, 16,9 foizi uzatish moslamalari, 38,4 foizi mashina va uskunalar, 13,4 foizi transport vositalari va 2,8 foizi boshqa asosiy vositalar hissasiga to‘g‘ri kelgan.




**Yirik tijorat korxonalari asosiy vositalarining
qoldiq qiymati (yil oxiriga, mlrd. so‘m)**


	Qoldiq qiymati		
	2017- y.	2018- y.	2019- y.
Asosiy vositalar - jami	96 309,8	130 269,1	161 200,2
 binolar	12 413,2	15 531,3	20 731,7
 inshootlar	26 275,4	31 168,6	39 675,5
 uzatish moslamalari	16 497,4	21 566,5	23 914,3
 mashina va uskunalar	29 054,6	43 148,8	52 077,8
 transport vositalari	8 013,2	14 603,2	20 045,0
 boshqa asosiy vositalar	4 056,0	4 250,7	4 755,9



Aktivlar turlari bo‘yicha yirik tijorat korxonalarining asosiy vositalari tarkibi (yil oxiriga boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha, jamiga nisbatan % da)



Aktivlar turlari bo‘yicha yirik tijorat korxonalarining asosiy vositalari tarkibi (yil oxiriga qoldiq qiymati bo‘yicha, jamiga nisbatan % da)





III. Hududlar kesimida asosiy vositalar



Hududlar kesimida boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati
bo‘yicha asosiy vositalar qiymati dinamikasi
(yil oxiriga, mlrd. so‘m)


	2017- y.	2018- y.	2019- y.
O‘zbekiston Respublikasi	309 746,0	705 020,0	833 577,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	29 846,2	48 437,8	54 229,1
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	15 481,7	37 740,4	41 321,9
Buxoro	19 174,6	44 963,3	48 314,6
Jizzax	10 148,0	30 540,0	36 508,5
Qashqadaryo	40 680,8	79 479,6	66 954,9
Navoiy	22 560,1	39 680,3	49 683,1
Namangan	11 142,4	28 960,6	34 701,2
Samarqand	19 223,7	50 888,8	59 594,5
Surxondaryo	10 740,3	46 212,9	48 196,5
Sirdaryo	7 027,0	15 613,3	18 382,5
Toshkent	37 024,5	74 155,5	90 436,5
Farg‘ona	16 446,9	41 792,2	49 599,7
Xorazm	10 322,2	28 805,9	33 242,7
Toshkent sh.	59 927,6	137 749,4	202 411,6



2019- yil oxiriga respublika bo‘yicha asosiy vositalarning umumiy qiymatidagi eng katta ulush Toshkent shahri (24,3 %), Toshkent (10,8 %) va Qashqadaryo (8,0 %) viloyatlariga to‘g‘ri keldi. Respublika asosiy vositalarining umumiy qiymatida eng kam ulushlar Sirdaryo (2,2 %), Xorazm (4,0 %) va Namangan (4,2 %) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.



2018-2019- yillar uchun hududlar kesimida asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha tarkibi (jami ga nisbatan % da)





2019- yil uchun hududlar kesimida asosiy vositalarning
boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha
(yil oxiriga, mlrd. so‘m)

	Jami asosiy fondlar	shu jumladan tarmoqlar asosiy fondlari	
		tovar ishlab chiqaruvchi ²	xizmat ko‘rsatuvchi ³
O‘zbekiston Respublikasi	833 577,3	292 275,5	541 301,8
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	54 229,1	16 381,4	37 847,7
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	41 321,9	15 539,6	25 782,3
Buxoro	48 314,6	11 672,9	36 641,7
Jizzax	36 508,5	9 110,0	27 398,5
Qashqadaryo	66 954,9	21 819,9	45 135,0
Navoiy	49 683,1	29 073,4	20 609,7
Namangan	34 701,2	9 146,2	25 555,0
Samarqand	59 594,5	16 411,4	43 183,1
Surxondaryo	48 196,5	9 557,0	38 639,5
Sirdaryo	18 382,5	6 840,6	11 541,9
Toshkent	90 436,5	43 891,5	46 545,0
Farg‘ona	49 599,7	15 694,8	33 904,9
Xorazm	33 242,7	7 810,7	25 432,0
Toshkent sh.	202 411,6	79 326,1	123 085,5

²Tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat va qurilish tarmoqlari kiradi.


³Xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarga savdo, yashash va ovqatlanish, tashish va saqlash, axborot va aloqa, moliya va sug‘urta faoliyati, ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar (uy-joy fondi), davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqalar kiradi.



Respublika bo‘yicha jami asosiy vositalarning 35,1 % i tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Hududlar bo‘yicha eng yuqori ulush Navoiy (58,5 %), Toshkent (48,5 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (39,2 %) kuzatilgan. Tovlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda asosiy vositalarning eng kam ulushi Surxondaryo (19,8 %), Xorazm (23,5 %) va Buxoro (24,2 %) viloyatlarida kuzatilgan.



2019- yilda tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha asosiy vositalarning tarkibi
(jamiga nisbatan % da)





2019- yil yakuniga ko‘ra, respublika bo‘yicha jami asosiy vositalarning 64,9 % i xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Hududlar bo‘yicha eng yuqori ulush Surxondaryo (80,2 %), Xorazm (76,5 %) va Buxoro (75,8 %) viloyatlarida kuzatilgan. Xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarda asosiy vositalarning eng kam ulushi Navoiy (41,5 %), Toshkent (51,5 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (60,8 %) kuzatilgan.

**Makroiqtisodiy indikatorlar
va milliy hisoblar boshqarmasi**

Tel.: 71 202 80 28; 71 202 80 34